

XIII ASR BIRINCHI YARMIDA QASHQADARYO

Muxammadiyeva Asal Adxam qizi

(QarDU)

muxammadiyevaasal@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Qashqa vohasidagi ikki asosiy shahar Nasaf va Kesh mug‘ullar tomonidan bosib olinganligi, Xuroson shaharlaridan Marv va Xirotda bosqinchilarga qarshi qurolli kutarilishlari, Jaloliddin Manguberdining sarkardalaridan bo‘lgan Qo‘shtegin Pahlavon Marv shahrini qamal qilib, ishg‘ol etganliklari haqida ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: V.V. Bartold, Chan-Chun, Buxoro, Chingizzon, Qo‘shtegin Pahlavon, Marv shahri, Nahshab, Movarounnahr, Mo‘g‘ullar, Kesh, Xuroson.

1220 yilda Qashqa vohasidagi ikki asosiy shahar Nasaf va Kesh mug‘ullar tomonidan bosib olindi. Yilnomalarda mug‘ullar istilosidan keyin kechgan yillar talqin etilmagan. Ayrim manbalarda Qashqa vohasidagi bu ikki asosiy shahar nomi bilvosita tilga olingan o‘rinlar ham juda oz. Jumladan, Nahshab (Nasaf) 1221 yilda Jaloliddin Manguberdi harakatlarining jonlanishi munosabati bilan tilga olib o‘tiladi. V.V.Bartoldniig tarixiy manbalarga asoslangan holda izohlashiga ko‘ra, 1221 yilning ikkinchi yarmida Jaloliddinning mug‘ullarga qarshi kurashda erisha boshlagan zafarlar xorazmshohning bosib olingan mulklarida qo‘zg‘olonlar sodir bo‘lishiga sabab bo‘ladi Xususan. Xuroson shaharlaridan Marv va Xirotda bosqinchilarga qarshi qurolli kutarilishlar xavfli tus ola boshlaydi. Jaloliddin Manguberdining sarkardalaridan bo‘lgan Qo‘shtegin Pahlavon Marv shahrini qamal qilib, ishg‘ol etadi. Ma’lumki, mug‘ullar qayerni bosib olmasin, avvalo. u joydagи suv inshootlarini ishdan chiqarishga, dambalarni, ko‘priklarni buzib tashlashga oshiqqanlar. Yuqorida biz Kashqa vohasining janubida XII asr muallifi Somyoniy qayd etgan 70 dan oshiq manzillarning aksariyati XIII-XIV asrlardan o‘tmagapligi, istilo davrida yoxud urush oqibatida yo‘q bo‘lib ketganligi haqida so‘zladik. Ma’lumki, Nasaf Qashqadaryoning janubidagi sug‘orma dehqonchilik qilinadigan maydonlarga oqib boradigan ariqlar boshidagi o‘ziga xos ayirg‘och vazifasi edi. Nasaf vayron etilishi tufayli ariqlar ham kumilib qolgan, dambalar, tug‘onlar buzib tashlangan. Natijada Nasafdan quyidagi ekinzorlarga suv bormagan. Xuddi shuningdek, Xorazmda ham, Murg‘ob daryosida ham mo‘g‘ullar to‘g‘onlarni yakson etib, daryolar oqimi o‘zgartirilgan va xalqni xonavayron qilgan. Qo‘shtegin Pahlavonning Marvda qisqa vaqt xukm so‘rishida

dastlab Murg‘ob daryosining tug‘onini tiklashga kirishadi. Qo‘shtegin Paxlavonning bu ishlari ezilgan, talangan xalqda hurmat uyg‘otadi. U juda kuchayib ketadi va xatto, Buxoroga yurish qilishga qodir bo‘ladi. Buxoroda Chingizzoninig Movarounnaxrni idora qiladigan noibi Nusha basqoq turardi.

Qo‘shtegin Paxlavon boshchiligidag isyon faqatgina 1222 yilga kelib bostiriladi. Mug‘ullar isyon alangasi uchirilgan Marvga ko‘z-quloq bo‘lib turadilar. Bu paytda Naxshabda (Nasaf) mug‘ullarning Turboy (yoki Turtoy) va Qaban elchi degan lashkarboshilari Marvga otlanishga hoziru nozir bo‘lib turardilar. Marvda yana isyon xavfi yuz bergenmi, har holda, tez orada Turboy Naxshabdan u tomonga yo‘l oladi. Mug‘ullar bosqinidan keyingi yillar haqida gapirilganda, Nasaf ana shu Turboyning Marvga ketishi munosabati bilan zikr etiladi. Binobarin, Naxshabning Chingizzon va uning lashkarboshilari yoqtirib qolishi boisi sabablari aslida bu joyning zaxira qushinlarni, tutib turish uchun qo‘layligida ham bo‘lgan, deyish mumkin. Naxshabdan borgan jazo qo‘smini Marvni qonga botirgan. Turboy bir hamla bilan shaharni qo‘lga oladi, qayd etilishicha, 100 ming kishi qilichdan o‘tkaziladi. Naxshabda zaxirada saqlangan mug‘ul suvoriyari Movarounnahr janglarida qon to‘kish hadisini olgan battollar bo‘lganligini tasavvur qilish mumkin.

Chingizzonning Movarounnahrni bosib olish harakatlari davom etayotgan yillarda Kesh xaqida biron bir ma’lumot uchramasligi zikr etilgan. Istilo girdobi Xurosonga ko‘chgan yillarda bir munosabat bilan Kesh tarixiy asarlar sahifasida qayd etiladi. Bu Xitoy rindi Chap-Chun sarguzashtlari bilan uzviy bog‘liqdir. Chan-Chunning safarnomasi mug‘ullar bosib olgandan keyingi dastlabki yillarda Movarounnahr va uning shaharlarida vaziyat qanday bo‘lganligini biroz bo‘lsa-da, yoritishga imkon beradi. Qolaversa shu xususda V.V.Bartoldning nuqtai nazari ham yanada oydinlashadi. Buni uning quyidagi so‘zлari misolida payqash mumkin: «Balx va Marvning yakson etilishi bilan Amudaryodan janubda bulgan viloyatlarda chiqib turgan g‘alayonlar Movarounnahrdagi osoyishtalikka xalal bera olmas edi. Bu mamlakatda isyonkor unsurlar qaroqchilar guruhi kurinishida hukm surib, shaxar va viloyatlarni qo‘lga olish holatida emas edi. Bu yillarda mamlakatning ahvoli va Chingizzonning orqaga qaytuvi haqida xitoylik rind Chan-Chunning safari tafsiloti (shogirdlaridan biri yozgan) ba’zi ma’lumotlarni beradi.

Garchand V.V.Bartold Movarounnahrda bosqindan keyin osoyishtalik hukm surayotgandek bir tasavvurni paydo qilmoqchi bo‘lsada, uning o‘zi «qaroqchi to‘dalar», «isyonkor unsurlar» borligini inkor etmaydi. Binobarin, butun o‘lkada ishga yaroqli erkaklar qatl etilgan, kul qilingan bir sharoitda, mayli, ularni rus muarixi qanday so‘zlar bilan atashidan qat‘i nazar, xalq kurashni to‘xtatmagan ekan. Bu esa shunday mulohazaga da’vat etadi: Naxshabda zaxirada katta harbiy kuchning ushlab turilishi sabablari, balki, shu «qaroqchi tudalar» dan qo‘rqish xavfi bilan bog‘liqdir?!

«Qaroqchi tudalar» ning hali shahar va viloyatlarni olishga qurbi yetmas edi, deganda V.V.Bartold xaq, hali bunga juda uzok. Ular toki mug‘ullarni yemirib tashlaguvchi kuchga aylanguncha ikki-uch avlod almashinadi. «Lekin, o‘sha vaqtda, mug‘ullarning qonli izlari sovumay turib, vatanparvar, bo‘ysunmas fidoyilarning bo‘lganligi, ularning bosqinchilarga tinchlik bermay yashirin kurash olib borishi dalilining o‘zi juda muhim ahamiyatga egadir.

Donishmand rind Chan-Chun haqidagi xabarni Chingizzon hali Irtishda turgan paytida eshitgan edi. Bu oliyjanob, hikmat sohibi bo‘lgan zotning dovrug‘i o‘sha vaqtda Chin-Mochin uluslariga tarqalgan edi. Chingizzon alloma rind bilan uchrashishni istab, uni xuzuriga taklif etadi. Xitoylik donishmand ham bundan foydalanib qolishni xohlaydi, qanday qilib bo‘lsa-da.

Jahongirlik shashtiga tushgan Chingizni yo‘ldan qaytarishga undamoqni niyat qiladi V.V.Bartold o‘zining «Turkyston o‘lkasi XIII asrda» degan ishida Chan-Chunning Movarounnahrga kelishi, Xurosonga utishi tafsilotlarini bafurja hikoya qiladi. Chan-Chun mug‘ullar bosqinidan ikki yil o‘tib safarga chiqadi. Alloma Chingizzon bilan uchrashish uchun uzoq va betinim yo‘l bosadi. U Samarcandga yetib keladi. Unga Samarcandning ulkan shahar bo‘lganligini, mug‘ullar bosib kelguniga qadar bu joyda 100 ming xonadon yashaganligini, hujumdan so‘ng ularning to‘rtadan bir qismi tirik qolganligini so‘zlab beradilar.

Aprel oyida choparlar kelib, Chan-Chunni yo‘lga chiqishga undaydilar. Bu paytda Chingizzon Xuroson shahar va qishloqlarni zabit etish bilan mashg‘ul edi. Rind 1222 yilning 26 aprelida Samarcanddan yo‘lga chiqadi.

Samarcandda Amudaryo safariga otlangan xitoylik alloma to‘rt kun deganda Kesh shahriga yetib keladi. Chamasi, u Keshda bir muddat turgan. Bu joyda unga 1000 kishilik jangovar kuzatuvchilarni ko‘shadilar. Sipoxiyalar uni Temur darvoza orqali manzilga yetkazishlari lozim edi. Kesh shahridan janubi-sharqqa qarab yo‘l olgan yo‘lovchilar baland tog‘larni oshib utishlari kerak edi.

Chan-Chunning Samarcandda bo‘lishi, shahar va kishilar hayotiga qiziqishi tafsiloti tarix uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib qoldi. Zero, mug‘ullar bosqinidan keyingi xolatni u o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan va guvoh bo‘lgan edi. Uning esdaliklarida Samarcand aholisining yurish-turishi, tashqi qiyofasi, kiyinishi, yashash tarzi o‘z aksini topgan. Bu ayni vaqtda butun Movarounnahr aholisiga tatbiq etish mumkin bo‘lgan ta’rif bo‘lganidan, ayrim o‘rinlarni muxtasar keltirib o‘tamiz. Chunonchi, Chan-Chunning aytishiga qaraganda, erkaklar ham, ayollar ham sochlarini uzun tashlab, o‘rib yurishgan. Erkaklar turli guldar matolardan baland bosh kiyim kiyganlar, popuklar osganlar. Aftidan, bu salsa bo‘lsa kerak. Oddiy xalq esa, boshini oq mato parchasi bilan bog‘lab yurgan. Din ahli ham oq dastor uragan. Ayollarning bosh kiyimini Chan-Chun budda monaxlarinikiga o‘xshatgan. Demak, xozirgi vaqtda

Dexqonobodda saqlanib qolgan qavat-qavat ro‘moldan baland bosh kiyimi kiyish urfi usha vaqtda keng joriyda bulgan. Boy - badavlat kishilar bosh kiyimini bezakli qilishga e’tibor bergenlar, qora yoki to‘q qizil popuklar osganlar. Buning uchun juda nozik matolardan foydalanganlar. Erkak va ayollarning koylaklari deyarli bir xilda, uzun bo‘lgan va oq jundan g‘oyat nafis to‘qilgan Chan-Chun koylaklar qon tariqasida tikilgan, deydi. Uning yuqori tarafi ingichka tortib, etagi keng bo‘lgan. Shahar qanchalik vayron etilmasin, yuz minglik oilaning uch qismi xalok bo‘lmasin, Samarqand xitoylik allomaning ko‘ziga boy-u badavlat bo‘lib ko‘rinadi: hamma joyda mis idishlar oltindek yaraqlab turadi. Sharobni chinni idishlarda ichilgan. Xitoylik donishmand ayniqsa poliz ekinlarining g‘oyat ko‘p ekanligidan ajablanadi. U Samarqandliklarning jismoniy kuchiga qoyil buladi, ular har qancha og‘ir yuk bo‘lsa, bemalol boshda yoki yelkada kutarib ketaveradilar.

Chan-Chun Samarqandda yashab turgan paytida, baribir, mahalliy kishilarning oilaviy hayoti haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘la olmagan. Uning naqliga ko‘ra, ayol kambag‘allahib qolgan erini tashlab ketishi mumkin bo‘lgan va erining uch oyda bo‘lmasligi ham ayolga yangidan nikohga kirish huquqini bergen. Chan-Chun Samarkandda ramazon vaqtida turgan. Musulmonlarning oqshom qo‘y so‘yib, tong otguncha bazm qilganliklarini ko‘rgan. U namoz va azon haqida ham yozib qoldirgan. Diniy rasm-rusumlarni ado etmaydiganlar qattiq jazolanganligini aytgan.

Xitoylik alloma esdaliklaridagi bir jihat e’tiborni tortmay: qolmaydi. Bu Samarqand atrofida yashirin kurash olib borayotgan vatanparvarlarning harakatiga taalluqlidir. Chan-Chun Samarqandda Chingizdan xabar kelishini kutib yashashda davom etar ekan, shubxasiz, shahar va uning tevarak-atrofida yuz berayotgan voqeaxodisalarni ham nazardan qoldirmaydi. Masalan, u sentabr oyida yo‘lga tushmoqchi bo‘lganida, Samarqanddagagi mug‘ul harbiy boshlig‘i uni kuzatib qoymoqchi bo‘lgan. Chan-Chun uni qoldirishga ko‘ndiradi. Chunki bu paytda Samarqandning sharqiy qismida 2000 kishilik «qaroqchi» paydo bo‘lib, mug‘ullarning tinchini buza boshlaydi. Vatanparvar kuchlar har tunda mug‘ullarning yashab turgan joylariga, yemhashaklariga o‘t quyanlar. I.P.Petshevskiy mug‘ullarga qarshi yashirin kurash olib borganlarni «partizan guruhlari», deb atagan edi.

Xitoylik donishmandni, shu tariqa, Samarqanddan harbiy kuchlar kuzatuvisiz yo‘lga ko‘zatadilar. Safarga chiqqanlar Keshga yetib kelishib, bu joydan 1000 piyoda va 300 otliq ko‘shin qurshovli yo‘lni davom ettiradilar. Bu gal ular Temir darvozann chetlab boshqa yo‘ldan ketadilar. Ular Amudaryo tomon borar ekanlar, qizil suvdan o‘tib, tog‘ etaklariga yetadilar. Tuzli suv (buluoq) bayiga duch keladilar, buluoq atrofi oppoq tuz bilan qoplangan: bo‘ladi, sayyoohlар yo‘l tadorigi uchun undan oladilar. Aftidan, Bu yo‘l Qamashi, Langar, Tuz koni orqali o‘tgan.

Chan-Chun safari talqinida ikki jixatga e'tibor bermaslik mumkin emas. Bu, avvalo, Movarouinahrda isyonkor kuchlarning borligi va ularning faol harakat ustida ekanligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tarafdan, shunchalik sitamlar ko'rgan bo'lishiga qaramay, xalqning ma'naviy tushkunlikka tushmaganligi masalasidir.

Bundan tashqari, garchi mug'ullar Xurosonni zabit etish ishlarini, qirg'in-barotni amalga oshirayotgan bo'lishlariga qaramasdan ular Movarounnaxrning bosib olingan va o'zлari uchun xavfli deb bilgan shaharlarida extiyot qo'shinlarini saqlab turganlar. Naqshabda, ko'rdikki, shunday zadira kuchlar Jaloliddin Manguberdi lashkariga qarshi tashlangai edi. Xitoylik rind Chan-Chunni Amudaryoga qadar kuzatib borish uchun ming kishidan ortiq soqchilar berilishi ham Keshda mug'ullarning katta zaxira kuchlari saqlanib turganligini tasdiq etadi. Lekin, muhim Chingizzonni xalqining katta qismini harbiy ishlarga jalb etishni (chox qazish, o'qqa nishon qilish va h.), cho'rila taylantirishiga qaramay, xunarmandchilik, ekin-tekin va kiyim-kechak bobida o'ta tushkunlik kayfiyati yengib o'tilganligidir. Buni Chan-Chun Samarqand ta'rifida keltirib o'tgan edi. Shubxasiz, Samarqand boshqa shaharlarga nisbatan mug'ullarni jazavali qaxr-u g'azabiga duchor bo'lganligi isbotga muxtoj emas. Biroq mug'ullarning shum qadamlari yetgan yer yo'kki, uning aholisi qaqqashmagan bo'lsa, Samarqand aholisi oradan ko'p o'tmay o'zini o'nglash yo'liga tushgan ekan, xalqda istiqbolga ishonch bo'lgan. Bu ishonchning ildizlari, ehtimol, mug'ullarning otlari to'radigan joylarda tunlarda osmonga o'rlaydigan olovlar bilan uchqunlangan bo'lsa, ne ajab?! Zero, yashirin kurash boshlaganlar ham shu xalqning jangovar, fidoniylug'lonlari bo'lgan. Xalq ularni qo'llab-quvvatlab turgan.

Mamlakat Chingizzon avlodiga tobe bo'lib qolgan, Movarounnaxrning barcha joylarida mug'ul hukmdorlari boshqaruvi tizimini butunlay qo'lga olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. P.Ravshanov Qashqadaryo tarixi Toshkent Uzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi «FAN» nashriyeti 1995 yili
2. Маҳмуд Кошғарий. Девону луг'отит турк. 1 жилд. Тошкент, 1960,342-бет. абиоров Ж., Сайдуллаев А. О'рта Осиую археологияси. Тошкен 1990. 141-бет.
3. Ахмедов Б. А. О'збекистон халқлари тарихи манбалари. 42-бет.
4. Любовь Воронкова. Следогненной жизни. Мессенские войны. М., 1969. С. 133.
5. Кабирои Ж., Сайдуллаев А. О'рта Осиую археологияси. Тошкент,1990. 141-бет.

6. Ahmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari. 2-nashri. – T., “O‘qituvchi”, 2001. B. 165-166.
7. Гулямов Я. Г., Исламов У., Аскаров А. Первобытная культура в нии ими, их Зерафшана. Ташкент, 1966. С. 18; Аскаров А. ИМКУ. Вып. 5,
8. A.A.Madraimov V.V.Bartold va A.Z.Validovning ilmiy merosida Amir Temur va temuriylar davri tarixi. Avtoref. – T., 2019.